ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK: 159.9:37 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2198

NEMIS SAYOHATCHISI XANS-XERMAN FON SHVAYNITSNING ESDALIKLARIDAN SAMARQAND TARIXIGA OID AYRIM LAVHALAR

M.Yakubova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. XIX asrning o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo yirik davlatlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Aynan shu davrdan boshlab Turkistonga chet el ekspeditsiyalarini yuborish faollashadi. Nemis tadqiqotchisi Xans Xermann Shvaynits Turkistonga bir necha bor tashrif buyurishga va o‘lka xalqlari hayotiga oid qiziqarli kuzatuvlar o‘tkazib keyinchalik ularni Germaniyada nashr ettirishga muvaffaq bo‘ldi. O‘z nashrlarida Shvaynits ko‘p yillik tadqiqotlari natijalarini namoyish qilib mintaqaning tarixi, etnologiyasi, iqtisodiyoti, gidrologiyasi va ixtiologiyasi haqida qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etgan. Ushbu maqolada Shvaynitsning Samarqand shahrining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga oid ayrim ma’lumotlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Samarqand, Zarafshon, eski shahar, yangi shahar, taxt toshi, machit, madrasa, bozor, Ko‘ksaroy, koshin.

Эпизоды из истории Самарканда по воспоминаниям немецкого путешественника Ганса-Германа фон Швайница

Аннотация. С середины XIX века Центральная Азия становится обьектом пристального внимания мировых держав того времени. Именно в этот период учащаются зарубежные экспедиции в Туркестан. Немецкому учёному Гансу Германну Швайницу удалось не один раз побывать в Туркестане и сделать интересные наблюдения из жизни народов края, которые позже опубликовал в Германии. В своих публикациях Швайниц демонстрирует результаты многолетних изысканий, в которых приводит интересные сведения об истории, этнологии, экономике, гидрологии, ихтиологии края. В данной статье речь идёт о некоторые материалах Швайница по истории социально- политической и экономической жизни Самарканда.

Ключевые слова: Центральная Азия, Самарканд, Зерафшан, старый город, новый город, тронный камень, мечеть, медресе, рынок, Куксарай, фаянс.

Some pictures of the history of Samarkand from the memories of the german traveler Hans-Hermann von Schweinitz

Abstract. Since the middle of the XIX century, Central Asia has been the object of close attention of the world powers of that time. It is during this period that foreign expeditions to Turkestan become more frequent. German scientist Hans Hermann Schweinitz managed to visit Turkestan more than once and make interesting observations from the life of the peoples of the region, which were later published in Germany. In his publications, Schweinitz demonstrates the results of many years of research, in which he provides interesting information about the history, ethnology, economics, hydrology, and ichthyology of the region. This article is about some of Schweinitz's materials on the history of the socio-political and economic life of Samarkand.

Key words: Central Asia, Samarkand, Zarafshan, old city, new city, throne stone, mosque, madrasah, market, Kuksarai, faience.

Markaziy Osiyo va G‘arbiy Evropa xalqlari o‘rtasida Buyuk Ipak yo‘li faoliyati doirasida boshlangan madaniy, savdo aloqalari Amir Temur davriga kelib elchilik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi bilan yangi mazmun kasb etib, faollashdi. Biroq XVI asrdan boshlab bu munosabatlar susayib, keyingi asrlarda deyarli to‘xtab qolgan edi. Bir necha asrlik tanaffusdan so‘ng XIX asr o‘rtalaridan aloqalar yana faollasha boshladi[20]. Ammo bu davrdagi munosabatlar boshqacha mazmunga ega bo‘lib, Markaziy Osiyoda o‘z hukmronligini o‘rnatgan Rossiya imperiyasining mustamlakachilik manfaatlari doirasida kechdi. Mintaqada o‘z mustamlakasiga ega bo‘lgan Rossiya imperiyasi bu yerdagi ma’muriy va iqtisodiy hayotni o‘z manfaatlari yo‘lida tashkil etish, uning zahiralarini o‘rganish va ulardan unumli foydalanishda malakali va bilimli ishchi kuchlarga muxtoj

edi. Garchi Rossiyadan o‘lkaga juda ko‘p olimlar va ilmiy jamiyatlar jalb etilsa-da o‘lkani o‘zlashtirish borasidagi siyosatni amalga oshirishda tajribali kadrlarga ehtiyoj katta edi. Shu bois XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining taklif va buyurtmalari asosida Germaniyadan Turkiston o‘lkasiga juda ko‘p nemis mutaxassislari tashrif buyurib, tadqiqotlar olib bordilar, amaliy faoliyatga jalb etildilar.

Markaziy Osiyo va G‘arbiy Evropa xalqlari o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar ko’p asrlik tarixga ega. Yevropalik tadqiqotchilarning Markaziy Osiyoga qiziqishi o’rta asrlardan tortib yangi zamon davriga qadar ham susaymagan [1]. Natijada o’lkamizning geografiyasi, tarixi, etnografiyasiga oid qimmatbaho ilmiy materiallar jamlangan. Ushbu hududda bo’lgan ingliz va fransuzlar bilan bir qatorda nemis millatiga mansub shaxslar ham talaygina edi [25]. Nemis tadqiqotchilari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Germaniya imperiyasi hukumati hamda Rossiya imperiyasi buyurtmalariga binoan Turkiston o’lkasini tadqiq qilish uchun safar qilganlar[18]. Turkiston bilan qiziqqan tadqiqotchilar orasida turli soha vakillari bo‘lgan. Ularning orasida tabiatshunoslar, harbiy topograflar, zobitlar, injener-muhandislar hamda sharqshunos va etnograflarni uchratish mumkin. Ushbu mutaxassislar keyinchalik [24]. Ularni birlashtiruvchi umumiy tomoni shundan iborat bo’lganki, ushbu shaxslarning barchasi oliy ma’lumotli bo’lib Berlin, Vyurtsburg, Gyottingen, Yena, Magdeburg, Drezden va boshqa oliygohlarda tahsil olishgan. Tadqiqotchilarning qariyb barchasi o‘z taassurotlari va tadqiqotlari asosida asarlar, memuarlar nashr qildilar. Ular Turkistonning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy tarixiga oid ma’lumotlarni o’z ichiga olgan. Bugungi kunda ushbu nashrlar Yevropaning turli kutubxonalarida saqlanib zamonamiz tadqiqotchilari uchun muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Mazkur mavzu Germaniyaning o’zida ham katta qiziqish o’yg’otmoqda. [23]. O’zbekiston ilmiy doiralari ham xorijiy tadqiqotlar ustida samarali faoliyat olib borishmoqda. Professor D.X.Ziyoyeva tashabbusi bilan O’zbekiston tarixini tadqiq etishda ingliz, frantsuz, nemis va xitoy tilidagi manbalarni jalb qilib turli kollektiv monografiyalar nashr qilindi[2].

O‘lkada keng tadqiqotlar olib borgan nemis mutaxassislaridan biri Xans-Xermann graf fon Shvaynits (Hans-Hermann graf von Schweinitz,1865-1918) edi. Graf fon Shvaynitsning sayohatlari haqida gapirganda, u Turkistonga kelguniga qadar Afrika mamlakatlariga ko‘plab ilmiy sayohatlar uyushtirganligini ham aytib o’tishimiz joiz. Ushbu tadqiqotchi Markaziy Osiyoga ikki marotaba tashrif buyurgan. Ikkala sayohati davomida ham unga rafiqasi hamrohlik qilgan. 1909 yildagi ikkinchi sayohati natijasida to‘plangan materiallarni 1910-yil Berlin shahrida nashr ettirgan [3]. Quyida Shvaynitsning Markaziy Osiyo shaharlari ichida eng ko‘hna shaharlardan biri bo‘lgan Samarqand haqidagi ayrim mulohazalarini e’tiboringizga havola etmoqchimiz.

Shvaynits Samarqandning geosiyosiy joylashuvi haqida fikr yuritib shunday ma’lumotlarni keltiradi:

“Samarqand ruslarning xuddi shu nom bilan atalgan guberniyasining poytaxti va rus okkupatsiyasidan oldin Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan shahar. U ikki egizak daryo Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi hududdan oqib o‘tib, yarim million gektar hududni sug‘orib, sahrolarga singib ketadigan Zarafshon daryosining o‘xshashi yo‘q serhosil vohasida joylashgan”.

Samarqand shahri tuzilishi haqida to‘xtalib muallif quyidagilarni yozadi:

“Bugungi Samarqand uch qismga bo‘linadi: ruslar istiqomat qiladigan yangi shahar, sartlar yashaydigan eski shahar va ikkalasining o‘rtasida qal’a-istehkom joylashgan. Qal’a tepalikda qurilgan bo‘lib bu erda qadimdan istehkom bo‘lgan.Ushbu istehkomda Buxoro hukmdorlarining saroyi, Temur qarorgohi va Buyuk Iskandar manzilgohi joylashgan edi. Eski shahardan shimolda qadimgi Maroqandaning Afrosiyob deb nomlangan xarobalari mavjud.U so‘nggi asrlarda qabristonga aylangan. Istehkom ortidan yangi shaharning radial shakldagi ko‘chalari boshlanadi. Yangi shahar o‘zining o‘lkan alleyalari va go‘zal bog‘lari bilan Turkistonning eng go‘zal shahri hisoblanadi” [4].

Tadqiqotchi Samarqand juda qulay iqlim sharoitlariga egaligini ta’kidlaydi va buning sababini shaharning dengiz sathidan ancha balandda (688 metr) joylashganligida deb biladi. Shvaynits ko‘hna Samarqand - Maroqandani dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri deb hisoblagan:

“Ibrohim (payg‘ambar) davrida bu erda shahar bo‘lgan. Forsiy tarixnavislar hatto shaharga Ibrohim zamonidan ikki ming yil avval asos solingan deb hisoblashadi. Buyuk Iskandar zamonida Samarqand yirik va go‘zal shahar bo‘lgan va shuning uchun Iskandar o‘z saroyini shu erga

joylashtirgan. Shaharda u o‘zining fors yurishlaridan hordiq chiqargan va bu erning og‘ir sharbatlari ta’sirida o‘z do‘sti Klitni o‘ldirib qo‘ygan. Yarim million aholisi bo‘lgan yarqiragan Maroqand 1221 yil Chingizxon tomonidan xuddi daxshatli zilzilaga uchragan kabi yer bilan yakson qilingan. Vayronalar yonida Timur qarorgohiga aylangan yangi shahar barpo etilgan” [5].

Tadqiqotchi Samarqandning qayta tiklanib buyuk shaharga aylanishida Amir Temur xizmatini yuqori baholab shunday yozgan:

“U orqali Samarqand o‘z zamonasida jahonning eng yarqiragan shahriga aylandi. Tengsiz g‘ayrat bilan Temur o‘zining ulkan imperiyasidan shaharga mohir ustalar va qimmatbaho materiallarni keltirdi. Oqibatda bu yerda misli ko‘rilmagan ulug‘vor binolar qad rostladi. Go‘zal bog‘lar yaratish uchun Zarafshonning mo‘l hosilni ta’minlovchi suvlaridan samarali foydalandi va butun sharq dunyosini zavqu hayratga solib lol qoldiradigan Samarqandni barpo etish maqsadida san’at va ilm-fan hamjihatlikda harakat qildi”[6].

Shvaynits Amir Temur avlodlari ham ulug‘ ajdodining ishini davom ettirib Samarqandda serhasham, go‘zal binolar barpo etishga harakat qilganliklarini alohida ta’kidlaydi, lekin Turkistondagi sulolalar almashuvi, zilzilalar va urushlarning vayronagarchiligi inson qo‘li bilan barpo etilgan binolarni yakson etgan. “Shuning uchun Temur zamonida qad rostlagan hashamatli binolarning bizgacha juda ozchiligi yetib kelgan”- deb afsus bilan yozadi muallif. Lekin saqlanib qolgan yodgorliklarda ham o‘sha uzoq o‘tmishning ertaknamo ro‘hi ufurib turadi” [7].

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, Samarqandda saqlangan ikki muqaddas joy butun islom dunyosida katta hurmatga sazovor. Bu Amir Temurning taxt toshi bo‘lgan ko‘ktosh turgan joy va Amir Temur va temuriylar maqbarasi edi. Ko‘ktosh Amir Temur arkidagi Ko‘ksaroyda turgan. Shvaynits ko‘rgan paytda u yerda Buxoro amirlari saroyi bo‘lgan. Demak, biz muallif keltirgan ma’lumotlardan 1909 yilda ko‘ktosh hali hozirgi Samarqand viloyat hokimiyati hududida joylashganligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘ktosh maxsus zalda saqlangan, rus hukumati tomonidan uni ziyorat qilish musulmonlarga ta’qiqlab qo‘yilgan. Nemis tadqiqotchisi Xans Xermann Graf fon Shvaynitsning Turkiston general-gubernatori tomonidan berilgan maxsus ruxsatnomasi (“Открытый лист”) bo‘lganligi tufayli ushbu taxt toshini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

“Aholi yarim ming yillik ushbu ko‘ktosh g‘ayrioddiy kuchga ega deb hisoblaydi va bugun ham unga ixlosi baland. Uni ziyorat qilgan inson (jangu-jadallarda) hech yaralanmaydi deb ishonishgan. Uning yuzasi 5 kv.m.ni tashkil etadi”- deb yozadi Shvaynits [8].

Ma’lumki, hozirda ushbu ko’ktosh Amir Temur va temuriylar maqbarasi hovlisida ochiq havoda joylashgan. Shu o‘rinda muazzam tariximizdan yorqin esdalik bo‘lgan ushbu taxt toshiga munosib joy topish zarur deb hisoblaymiz. Dunyo mamlakatlari tarixida ham shu kabi yodgorliklar mavjud, biroq ular maxsus binoda saqlanadi. Misol uchun, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya imperatorlari taxtiga taalluqli artefaktlar o’ziga munosib binolarda saqlanmoqda, bu ham avlodlarning o’z tarixiga bo’lgan hurmatini ifodalaydi. Islohotlar jadal olib borilayotgan Yangi O‘zbekistonda ushbu masala ham yaqin kelajakda o‘zining ijobiy echimini topishiga ishonamiz.

Tarixdan ma’lumki, temuriy hukmdorlarning taxtni egallashi ushbu ko‘ktoshga chiqish marosimi bilan boshlangan va shundan keyingina ularning hokimiyati qonuniy hisoblangan. Hatto poytaxt Buxoroga ko‘chirilgach ham Buxoro xon va amirlari albatta Samarqanddagi ko‘ktoshga chiqarilgan, ya’ni ikki martalik taxtga chiqish marosimi, zamonaviy ibora bilan aytganda, ikkilamchi innaguratsiya amalga oshirilgan: biri Buxoroda, ikkinchisi Samarqandda. Aks holda hukmdor hokimiyati noqonuniy hisoblangan. Amir Timur ko‘ktoshiga oxirgi marta Buxoroning so‘ngi mustaqil hukmdori Amir Muzafariddin (1834-1885-yy.) chiqarilgan. Undan keyin, bilamizki, Rossiya imperiyasi tomonidan egallangan Samarqand shahrida bunday marosimni o‘tkazishga imkon bo‘lmagan.

Amir Temur va temuriylar maqbarasi haqida fikr yuritganda muallif avvallari faqat musulmonlarga ziyorat qilish ruxsat etilgan bo‘lsa, endi nasroniylar ham bemalol kirib, hatto so‘ratga ham olishi mumkinligini yozgan. Muallif binoning ichki va tashqi bezaklaridan juda hayratlangan. Bu ikki muqaddas joydan tashqari bu yerda temuriylar davridan ko‘plab machit va madrasalar qolganligini va ular Turkistonning boshqa shaharlariga qaraganda Samarqandda nisbatan yaxshi holatda saqlanganligini ma’lum qilgan.

Machit va madrasa bezaklarida koshinlar bilan qoplanmagan biron qarich joy topilmaydi deb xayratlanadi muallif. Anau (Turkmaniston) shahridagi machit peshtoqining koshinli naqshlarida ikki ajdarning tasvirini ko‘rgan tadqiqotchi Samarqandda Sherdor madrasasi peshtoqidagi ikki sherni tasvirlab ularni ikkita pantera deb atagan.Shvaynits Amir Temur nabirasi bo‘lgan hukmdor, astronom Mirzo Ulug‘bek va u qurdirgan madrasaga yuksak baho berib madrasa ichida Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi ham mavjud bo‘lgan degan ma’lumotni keltirgan [9].Tadqiqotchining rasadxona qurilgan joy haqidagi fikrlari xato bo‘lgan. Xans graf fon Shvaynitsning o‘z sayohatlariga bag‘ishlangan kitobi 1910 yil Germaniyaning Berlin shahrida nashr etilgan bo‘lsa-da, u bundan atigi ikki yil oldin, 1908 yilda Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi rus arxeologi V.Vyatkin tomonidan topilganligidan bexabar bo‘lgan ko‘rinadi.

Muallif asrlar osha saqlanib kelayotgan rangli koshinlarni tayyorlash texnikasiga oid ma’lumotlar yo‘qotilganligi haqida achinib yozgan:

“Bugungi kunda na sharqda, na bizda ushbu koshinlarni yasay olishadi. Ular jahon muzeylari va sayohatchilari uchun eng qiziqarli obyekt sanaladi (chunki ularni dunyoda hech kim o‘ziday qilib yasay olmaydi).Bunday koshinlarni binolardan yulib olganlar ruslar tomonidan katta miqdorda jarimaga tortiladi. Musulmonlar uchun esa ushbu muqaddas binolar koshinlariga zarar yetkazish uyat sanalgan” [10].

Shvaynitsning mahalliy aholiga nisbatan yuqorida hurmat bilan keltirilgan fikrlariga qaramasdan ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan avlodlarga qoldirilgan ushbu qimmatbaho, betakror va noyob osori atiqalarni uyalmasdan pullashga harakat qilib, mumay daromad olish ilinjidagi fuqarolar ham bo‘lganligini tariximiz inkor etolmaydi. Masalan, tadqiqotchining ma’lumotiga ko‘ra, Buxoroda turli koshinlarni sotib olishni taklif qilgan savdogarlar bo‘lgan. Xorijiy xaridorlar ular uchun 100 rubl taklif etishganda mahalliy savdogarlar juda xafa bo‘lganligini yozadi muallif. Bu koshinlar katta qiyinchiliklar bilan topilgani bois savdogarlar ularni juda baland narxda sotishni mo‘ljallaganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Shoxizinda yodgorligi ta’rifidan keyin tadqiqotchi Registon maydoniga o‘tadi. U Registon maydonida tijorat do‘konlaridan tashqari juda ko‘plab choyxona va kabobxonalar (shashlikxonalar) aholiga xizmat ko‘rsatganligini ma’lum qilgan. Shu o‘rinda Registondagi tamaddixonalarda nasroniy va musulmon aholi bemalol yonma-yon o‘tirib tanovul qilishi mumkinligini ta’kidlagan muallif Samarqandni turli etnik guruhlar tinch-totuv yashaydigan, nafrat va fanatizmdan holi bir hudud sifatida e’tirof etgan. Registon maydonidagi savdo-sotiq haqida fikr yuritib muallif Samarqandda tijorat ishlari juda rivojlanganligini e’tirof etadi. Shvaynits mayiz bozorni tasvirlab Samarqandga mayiz xarid qilish uchun butun Rossiyadan savdogarlar kelganligini ma’lum qiladi. Bibixonim machiti yonida juda katta mayiz bozori joylashgan edi. Rus va boshqa xorijiy xaridorlarning mahalliy aholidan vakillari bo‘lgan, ular mahsulotni xaridor nomidan sotib olganlar. Mayiz tarozida o‘lchangach maxsus odamlar uni xaltalarga solib oyoqlari bilan yaxshilab presslaganlar. “Samarqand mayizlari juda chiroyli bo‘lib, uzum turi va yetishtirish usullariga ko‘ra mayizlarning juda ko‘p navlari bor”- deb yozadi tadqiqotchi. Ular, men Samarqandda bo‘lgan paytimda, naviga qarab bir botmoniga 21-25,5 rubl, yoki bir sentneriga 17-21 nemis markasida narxlangan” [11]. Muallif Samarqand bozoridan presslanmagan eng yaxshi navli mayizdan bir pudini 22 nemis pfennigiga (pfennig - nemis pul tizimida mayda pul chaqa) xarid qilganligini ma’lum qilgan. Umuman olganda, barcha nemiszabon mualliflar Turkiston shaharlarida, shu jumladan, Samarqandda oziq-ovqat mahsulotlari Yevropaga nisbatan ancha arzonligidan xayratlanishgan. Shvaynits Samarqand bozorida 1907 yilning o’zida bir milliondan ortiq rublga mayiz sotilganligi haqida ma’lumot bergan [12]. Bundan kelib chiqadiki, o’sha davrda Samarqanddan chetga juda katta miqdorda mayiz eksport qilingan.

Samarqandning meva bozori ham katta bo‘lgan. Ayniqsa, quritilgan mevalar ulkan miqdorda eksport qilingan. Misol uchun, o’rik, shaftoli, olma, olcha, bulardan tashqari pista, yeryong‘oq, bodom, hamda o’rik va shaftoli donagining mag‘izi chetga sotilgan. Ularning narxi ham juda arzon bo’lgan. Tadqiqotchi mahsulot narxlarini nemis hisob tizimiga o‘girib quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: bir sentner shaftoli 8 marka, yeryong‘oq-15, bodom-46, pista (po‘chog‘i bilan) 51, po‘chog‘siz pista - 59 marka. Eksport qilinganda qadoqlash va mahalliy xarajatlar uchun har bir sentner mahsulotga 0,92 marka qo‘shib to‘langan [13].

Samarqand bozori juda gavjum bo‘lgan. Moskvadan keltirilgan gazlamalar ko‘plab Yevropa firmalari tomonidan import qilingan.

Savdogarlarning mahalliy vakillari juda katta miqdordagi tangalar bilan muomala qilishgan. Rossiya savdogarlari esa savdo operatsiyalarini rublda amalga oshirganlar [14]. XX ars boshlarida ham Samarqand aholisi savdo – sotig’ida Buxoroning kumush tangalari muomalada bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Savdogarlarning vakillari rubl va tangalarni ayirboshlashga majbur bo‘lishgan. Ushbu holat xorijiy savdogarlar uchun mahalliy aholi bilan savdo qilishda, albatta, ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirgan. Savdo agentlariga har kuni uylariga xaltalab tangalarni olib borib olib kelishga to‘g‘ri kelgan. Buni atrof aholidan maxfiy tutishning, tabiiyki, iloji bo‘lmagan. “Lekin shunga qaramasdan,-deb yozgan muallif,- o‘g‘rilik va jinoyatlar juda kam uchraydi” [15]. Bu ham xalqning shariat qoidalariga sodiqligi, tarbiyasining ancha mustahkamligidan dalolat bergan. Graf fon Shvaynitsdan tashqari boshqa nemis tadqiqotchilari asarlarida ham shunday ma’lumotlarga duch kelamiz [16]. Lekin ming afsuski imperiya hukumatining mahalliy aholining mustahkam tarbiyasini buzish uchun va shu orqali imperiya manfaatlariga sodiq xizmatkorlarni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan maxsus choralari Samarqand aholisining ayrim qatlamlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Ushbu holatlar Shvaynits tadqiqotida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi [17].

Bozorlardan tashqari tadqiqotchi shahardan ancha uzoqda mahalliy aholining sevimli sport turi bo‘lgan ko‘pkarini tasvirlagan. Bu masalaning Shvaynitsning fikriga qo‘shilib bo‘lmaydigan tomoni ham bor. Tadqiqotchi, ayniqsa, bayram kunlari Samarqandda ko‘pkarilar o‘tkazilishi haqida yozib, u aholining yagona sport mashg‘uloti deb yozgan. Biz bilamizki, ko‘pkaridan tashqari Navro‘z, hayit bayramlarida samarqandliklar tepaliklarga chiqib, ayniqsa Cho‘ponota tepaligida [19], sayllar o‘tkazishgan. Ushbu sayllarda aholi nafaqat qo‘shiq kuylab, birgalikda taomlangan, balki kurash, arqon tortish va h.k. sport o‘yinlarini ham o‘tkazishgan. Samarqand aholisi qadimdan shaxmat o‘yiniga ham katta qiziqish bilan qaragan. Buni Samarqandda olib borilgan arxeologik tadqiqotlat ham isbotlaydi.

XIX asrda mintaqamizning Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari tashqi siyosatida muhim geostrategik ahamiyat kasb eta boshlashi munosabati bilan Yevropaning Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlaridagi ilmiy jamiyatlar, havaskor tadqiqotchilar, sayyohlarning tashrifi ko‘paydi[22, S. 16-28.]. Bu tashriflar natijasi ularoq, Yevropada Markaziy Osiyo haqida ingliz, nemis va fransuz tillarida o‘nlab monografiyalar, safarnomalar, davriy nashrlar va matbuotda yuzlab maqolalar hamda xabarlar chop etildi [21]. Biroq ularning asosiy qismi hanuzgacha ilmiy muomalaga kiritilmay kelmoqda.

Nemis tilidagi manbalarni tadqiq etish qisman bo‘lsa-da ushbu masala echimiga o‘z hissasini qo‘shadi degan umiddamiz. Xorijiy tadqiqotchilarning asarlari yurtimiz o‘tmishini o‘rganishda biz tarixchilar uchun qimmatbaho manba hisoblanadi, albatta. Shu bilan birga, ularning har biri hukmron imperiya mafkurasiga xizmat qilganligini (aks holda ular Turkistonga yaqin yo‘latilmasdi) unutmagan holda o‘rganilayotgan mintaqa ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga oid xolis va noxolis tomonlarini hisobga olib, ushbu tadqiqotchilar ma’lumotlariga tanqidiy yondashishimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda, avvalo mintaqaning tabiiy resurlarini, shu bilan birga Turkiston xalqlari hayotining turli jihatlarini o‘rganishga xizmat qilgan xorijiy expeditsiyalar tashkil qilinib, ular ko‘pincha hukumat tomonidan, ayrim hollarda davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan, hamda shaxsiy mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan. Ushbu tadqiqotchilar orasida nemis millatiga mansub olimlar ham salmoqli o‘ringa ega edi. Shulardan biri bo‘lgan Xans Xermann Shvaynitsning tadqiqotlari yurtimizning qadimgi davrlardan boshlab to XIX-XX asr boshlaridagi ahvoliga oid ko‘plab qimmatli materiallarga ega. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston, xususan, Samarqand shahri tarixini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldiradi.

Adabiyotlar

1. Ziyaeva D.X.O‘zbekistonda intellektual meros tarixiga oid manbalar (XIX – XX asr boshlari). Toshkent.– 2018; O‘zbekiston tabiiy sohalariga oid ilmiy ekspeditsiyalar tarixidan.-Toshkent. 2019. – B.10-12.
2. Ziyaeva D.X. O‘zbekiston tahixiga oid manba va tadqiqotlar (XIX – XX asr boshlari) Mas’ul muharrir D.H. Ziyaeva. Toshkent: Nurafshon business, 2022. – B. 364-381.

3. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.
4. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.95-96.
5. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.96.
6. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.97.
7. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.97.
8. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.98.
9. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.102.
10. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.101.
11. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.105.
12. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.106.
13. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S. 106.
14. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.107.
15. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.107.
16. Maks Albrext, Frans Shvars va b.
17. Hans-Hermann graf von Schweinitz.Orientalische Wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien.-Berlin, 1910.-S.107-108
18. Hedin S. Die geographisch-wissenschaftlichen Ergebnisse meiner Reisen in Zentralasien 1894-1897. Leipzig, 1904.-S.100-130
19. Ushbu tepalikda yassaviylik tariqati vakili Cho‘pon otaga atalgan maqbara ham bo‘lgan.
20. Lehmann A. Alexander Lehmann’s Reise nach Buchara und Samarkand in den Jahren 1841 und 1842 (Nach den hinterlassenen Schriften desselben bearbeitet, und mit Anmerkungen versehen von G. v. Helmersen. Nebst einem zoologischen Anhaenge von J.F.Brandt. Berlin,1852 -S. 10.
21. Mark R. Im Schatten des Great Game.Deutsche “Weltpolitik” und russische Imperialismus in Zentralasien 1871-1914. Hamburg.2012 -S. 10-19
22. Sidikov B. Eine unermessliche Region. Deutsche Bilder und Zerrbilder von Mittelasien (1852-1914). Berlin.2003 -S. 16-28.
23. Torma F.Turkestan-Expeditionen. Zur Kulturgeschichte deutscher Forschungsreisen nach Mittelasien (1890-1930). Bielefeld.2011. -S. 11-18.
24. Schlagintweit M., Ueber den Himalaya. Die Expedition der Brueder Schlagintweit nach Indien und Zentralasien 1854-1858, Berlin, 1860.- S. 20-27
25. Werner W., Das Kaiserreich Ostindien und die angrenzenden Gebirgslaender, nach den Reisen der Brueder Schlagintweit und anderer neuerer Forscher dargestellt. Berlin, 1880 -S. 10-28.